

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”

**Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil**

FALSAFA

FANIDAN O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim

Ta’lim yo‘nalishi: Bakalavriatning barcha yo‘nalishlari uchun

QO‘QON – 2025

Fan/modul kodi		O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
FAL104		2025-2026	I-II-III-IV	4	
Fan/modul turi		Ta’lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy		O‘zbek		4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafa.		60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni				
Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri fikrlash ko‘nikma va malakasini shakllantirishdan iborat. - talabalarga ma’naviyatning mazmun mohiyati, ma’naviyatshunoslik fanining shakllanish jarayonlari xalkimizning tarixan boy ma’naviy merosi, ma’naviy-ma’rifiy takomil bosqichlari, milliy ma’naviyatimizning umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, uning uziga xos betakror xususiyatlari xaqida tushunchalar berish, ularning bu boradagi bilimlarini yanada boyitish. Fanning vazifasi: - falsafiy bilimlar qonunlar va kategoriyalarni o‘rganish orqali hayotda o‘z o‘rnini topish; - talabalarni ma’naviy barkamol inson sifatida shakllantirish; - jamiyat hayotidagi ijtimoiy ma’naviy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish; - o‘z-o‘zini ma’naviy axloqiy, diniy tarbiyalash; - jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash. - ma’naviyat asoslari fani soxasiga oid talabalarga zamonaviy talablar asosida xar taraflama chukur bilim berish, ularning umuminsoniy dunyokarashlarini shakllantirish, bag‘rikenglik, totuvlik, xamjixatlik, shukronalik, daxldorlik, mas’uliyat, Vatanni sevish va el-yurti ardokdash kabi milliy va umumbashariy ma’naviy qadriyatlarga sadoqat ruhini mustaxkamlash, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish, milliy ma’naviyatimiz an’analariga muxabbat tuygularini singdirishdan iborat.					
Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:					

Falsafa fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Boston universitetining Falsafa fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 88-o'rinni egallagan bo'lib, ushbu sohada yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Boston Univesitetining Falsafa kursida, fanning asosiy tushunchalari, g'oyalari, nazariyalari va usullarini, shuningdek, jamiyatning tabiati va evolyutsiyasi yo'nalishiga oid zamonaviy va zamonaviy nazariyalarni ko'rib chiqamiz. Falsafiy va sotsiologik munozaralar shaxs va jamiyat, insoniyat jamiyati va falsafiy qarashlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar nuqtai nazaridan tuzilgan va keng yoritiladi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro ta'lim me'yorlari, xususan, ilmiy madaniyat normalari va qoidalarini, dunyoni siyosiy idrok etishning samarali texnologiyalarini, shuningdek, siyosiy voqealarni yoritishning o'ziga xos xususiyatlari, ichki va xalqaro siyosiy kun tartibini ekspert baholash usullari, siyosiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa xavf va tahdidlarni aniqlash prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini siyosiy-tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar.

1-MODUL. FALSAFA

I – Ma'ruza. Nazariya. Falsafaga kirish. Asosiy falsafiy mavzularni sinchiklab o'rganish orqali falsafiy faoliyatning mohiyati bilan tanishtiradi. Mavzular haqiqat tabiati, bilim, Xudoning mavjudligi va inson hayotining ahamiyatini o'z ichiga olishi mumkin. Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati. Bo'lg'usi pedagoglarda fanni o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.

Falsafaning predmeti, va uning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Falsafaning bahs mavzui. Falsafaning asosiy muammolari. Falsafaning jamiyat hayotidagi o'rni va uning funksiyalari. Dunyoqarash tushunchasi. Dunyoqarash darajasi va ularning aloqadorligi. Dunyoqarashning asosiy tiplari va ularning bir-biri bilan aloqadorligi. Ilmiy-falsafiy dunyoqarashning inson tafakkuri madaniyatini shakllantirishdagi o'rni.

2-mavzu. Falsafani taraqqiyot bosqichlari Sharq falsafasi.

Sharq - jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri. Qadimiy SHarq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlar. Qadimgi Hindistonda olam va odamning kelib chiqishi, ularning o'zaro munosabati borasidagi falsafiy qarashlarning rivojlanishi. Vedalar va Upanishadlar qadimgi hind donishmandligining manbai sifatida. Qadimgi hind falsafiy maktablari. "Avesto" qadimgi davrda Markaziy Osiyoda rivojlangan inson, tabiat, jamiyat va davlatchilik haqidagi falsafiy g'oyalarning ilk manbai sifatida. Daochilik, Konfutsiychilik, Moizm, Legizm singari qadimgi Xitoy falsafiy maktablarining borliq, inson, jamiyat va davlatning mohiyati, ijtimoiysiyosiy tartibot, yoshlarda axloqiy fazilatlarni

shakllantirish haqidagi g'oyalari. Arab-musulmon sivilizatsiyasi va islom falsafasining vujudga kelishi. Islom tamaddunida diniy va dunyoviy ilmlarning o'zaro uyg'unlikdagi taraqqiyoti (Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abubakr ar-Roziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sinolarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy falsafiy qarashlari). Islomiy ilmlar rivojida Xuroson va Movarounnahrda yetishib chiqqan olimlar hissasi. Ilk o'rta asr Sharq falsafasi va uyg'unish davri. Ilk o'rta asrda tasavvuf va islom ilohiyotshunoslik maktablari ta'limotlari.

3-mavzu. G'arb tafakkuridagi buyuk shaxslarni o'qish orqali falsafaga kirish.

Ro'yxatga Platon, Aristotel, Dekart, Russeau, Nitsshe, Rassell kiradi. G'arb falsafasi Qadimgi Yunonistonda falsafa ilmining shakllanishi. Sokratgacha bo'lgan davr falsafasida olamning paydo bo'lishi, uning mohiyatida yotuvchi unsurlar, borliqning tuzulmasi unda ro'y beradigan o'zgarishlar, taraqqiyot va tanazzulning sabablari, borliqning o'zgarmas asoslari (suv, havo, tuproq, olov, apeyron, atom,) haqidagi Melit maktabi, Geraklit, Pifagor, Eley maktabi, Empedokl, Anaksagorlar qarashlari. Suqrotning va sofistlarning inson haqidagi qarashlari. Aflotun va Arastuning borliq paydo bo'lishi, insonning bilish imkoniyatlari, axloqiy fazilatlar, jamiyat hamda davlat borasidagi g'oyalari. Ellinizm davri falsafaning inson hayotidagi o'rni, fizika, mantiq, axloq ilmlarining mutanosibligi, erkinlik, shubhaning bilish jarayonidagi ahamiyati g'oyalarining tarqalishi. Ilk o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Ilk o'rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida appologetika va patristika, sxolastika, nominalizm va realizm. Avreley Avgustin ta'limoti. Foma Akvinskiy ta'limoti. O'rta asrlar Yevropasida Uyg'unish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari. Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari. Yangi davr G'arb falsafasidagi asosiy muammolar. XVIII asr Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari. XX-XXI asr G'arb falsafasining oqimlari (pozitivizm, neopozitivizm, pragmatizm, ekzistensializm, fenomenologiya, postmodernizm, personalizm oqimlari). XX-XXI asr G'arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji.

4-mavzu. Borliq (ontologiya) va rivojlanish falsafasi Borliqni ta'riflash muammosi.

Tabiiy ilmiy fanlar va falsafa tarixida "Borliq" kategoriyasining o'rganilishi. Borliq, mavjudlik va reallik. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Biosfera va Noosfera haqidagi ta'limotlar, koevolyusion va invayronmental nazariyalar. Borliqning o'zgarmas asosi (substansiya va substrat) tushunchalarining mohiyati. Borliq ibtidosini sifatiy va miqdoriy jihatdan tushuntirishga oid konsepsiyalar tasnifi (Monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm). Borliqda shakllanish, o'zgarish, rivojlanish va taraqqiyotning o'zaro aloqadorligi. Makon, vaqt va harakat tushunchalari. Materiya (modda) falsafa va tabiatshunoslikning kategoriyasi sifatida. Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqt.

5-mavzu. Ўзaro aloqadorlik va rivojlaniш qonunlari. Falsafiy kategoriyalar

Falsafada qonun tushunchasi va uning mohiyati. Qonun va qonuniyat.

Tabiat va jamiyat qonunlarining bir-biridan farqi. Falsafiy qonunlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Dialektikaning asosiy qonunlari.

Qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni. Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Inkorni inkor qonuni va vorisiylik. Falsafiy kategoriyalar mohiyati va xususiyati. Falsafa kategoriyalarining xususiy fanlar tushunchalaridan farqi.

5-mavzu. Gnoseologiya-bilish haqidagi falsafiy ta'limot. Metod va metodologiya tushunchasi.

Bilish-voqelikning in'ikosi. Bilish to'g'risidagi ta'limotlar. Metod va metodologiya tushunchasi. Bilishning ob'ekti va sub'ekti. Bilishning asosiy bosqichlari hissiy va aqliy. Inson ijodiy bilishining ko'rinishlari. Intuitiv bilish, oldindan bilish, g'oyibona bilish. Bilish va bilim. Amaliyot. Bilish jarayonida amaliyotning roli. Falsafada haqiqat muammosi. Nisbiy va mutloq haqiqatlar. Xususiy fan metodlari va falsafiy metodlarning o'xshash va farq qiladigan jihatlari. Ilmiy metodlar klassifikatsiyasi. Ilmiy bilish va uning o'ziga xos xususiyatlari.

7-mavzu. Ong falsafasi.

Ong – yuksak darajada shakllangan matyeriya ko'rinishi – odamzod miyasining mahsuli. Ong bilan ruhiyat o'rtasidagi bog'liqlik. Inson ongining tabiiy-ijtimoiy jihatlari. Ong va in'ikos. In'ikosning mohiyati, asosiy shakllari. Hissiyot va tasavvur. Iroda va tafakkur. O'z-o'zini anglash, tuyg'ular, onglilik va ongsizlik muammolari. Ong, til va mehnat, ularning bog'liqligi. Ijtimoiy va individual ong. Ijtimoiy ong, uning darajalari va asosiy shakllari. O'z-o'zini va milliy o'zlikni anglash.

8-mavzu. Jamiyat falsafasi. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi.

Jamiyat tushunchasi. Jamiyatning mohiyati kelib chiqishi va taraqqiyoti to'g'risidagi qarashlar. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jamiyat haqidagi qarashlari. Jamiyatdagi tarixiy-etnik birliklar (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino). Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Madaniyat va sivilizatsiya mutanosibligi. Madaniyatning funksiyalari. Madaniy kommunikatsiyaning ahamiyati. Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati. Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yo'nalishlari.

9-mavzu. Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)

Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya) Falsafa tarixida insonning mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Inson mohiyatiga fan nuqtai nazaridan yondashuv. Inson, individ, shaxs tushunchalarining o'zaro aloqadorligi. Ongning mohiyati, strukturasi va funksiyalari. Onglilik va ongsizlik dialektikasi. Insonning bioijtimoiy, psixologik mohiyati. Falsafiy antropologiya inson haqidagi ta'limot sifatidagi mohiyati. Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi. Hayotni tark etish bosqichlari (suitsid, parasuitsid, evtanaziya, esxatologiya). Faoliyatda onglilik va maqsadga muvofiqlik. Muloqot faoliyat sifatida. Mehnat, o'yin, ijod faoliyat turi. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati. Inson-

jamiyat-davlat tamoyilining falsafiy mazmuni. Darvin, Marks, Nitsshe va Freydning inson tabiati haqidagi an'anaviy tushunchalarini qanday yo'l bilan buzishini o'rganadi. Bu mutafakkirlar bizni din, insonning o'ziga xosligi, ongli aqli, axloqning roli va mavqei, sivilizatsiyaning ko'taruvchi ta'siri haqidagi oddiy taxminlarimizni shubha ostiga qo'yishga o'rgatadi. 2018 yilning kuzida ushbu kurs quyidagi BU Hub yo'nalishlarining har birida bitta bo'limni bajaradi: Falsafiy tadqiqot va hayotning ma'nolari, tarixiy ong, tanqidiy fikrlash.

10-mavzu. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya)

Qadriyat tushunchasining ma'nosi va uning umumiy tavsifi. Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi. Ehtiyojlar va qadriyatlar dinamikasi. Qadriyatlarning turlari (umuminsoniy, milliy, shaxsiy qadriyatlar). Oilaning qadriyatga doir jihatlari. Muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlikning qadriyati jihatlari. Oiladagi ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Gender tengligini ta'minlashda inson mehnati qadrlanishining ahamiyati. Mahalla – o'zbek milliy qadriyati sifatida. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Oila-ta'lim-mahalla tizimi. Qadriyatlarning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Qadriyatlarni baholash. Uchinchi ming yillikda qadriyatlarning transformasiyasi. Jamiyatning devalvatsiyasi (qadrlanish va qadrsizlanish). Sog'likning qadriyat sifatidagi ahamiyati. Sog'lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari

11-mavzu. O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati

O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati Korrupsiyaga qarshi kurashda tizimli yondashuvning zarurati. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro huquq normalarining O'zbekiston qonun hujjatlariga implementatsiya qilinishining ahamiyati va uning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslari. Korrupsiyaning ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyat sifatidagi tahlili va uni bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning ahamiyati. Korrupsiya namoyon bo'lishining ijtimoiy sohalari, psixologik jihatlari. Korrupsioner xulq atvorining umumiy tavsifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning tarixiy an'analari.

12-mavzu. Mantiq.

Mantiq. Mantiq tushunchasi va unga xilma-xil yondoshuv: ob'ektiv mantiq, sub'ektiv mantiq. Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sohasi sifatida. Mantiqiy tafakkur evolyutsiyasi: formal, dialektik va noklassik mantiq. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Formal mantiqning predmeti va strukturasi. Tafakkur qonunlari, ularning mazmuni va to'g'ri fikr yuritishdagi ahamiyati. Ayniyat qonunining to'g'ri fikrlashdagi o'rni. Ayniyat qonuni buzilganda kelib chiqadigan xatolar. Fikr chinligini aniqlashda nozidlik qonunining o'rni. Uchinchisi istisno qonunining mohiyati va asosiy talablari. Fikrlarni dalillashda yetarli asos qonunining ahamiyati. Ijtimoiy-siyosiy va sud-huquq jarayonlarida yetarli asos qonunining qo'llanilishi.

13-mavzu. Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm va xulosa.

Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm va xulosa. Tushuncha - predmetlarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ular o'rtasidagi teskari nisbat. Tushunchaning turlari va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish. Tushunchani ta'riflash (definitsiya). Ta'riflash qoidalari va ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar. Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi va xususiyatlari. Oddiy va murakkab hukm. Murakkab hukmlarni xosil qiluvchi mantiqiy bog'lamalar. Savol va javobning muhokama yuritishdagi ahamiyati. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Xulosa chiqarishning tuzilishi. Xulosa chiqarish turlari. Oddiy qat'iy sillogizm, uning tarkibi, aksiomasi va umumiy qoidalari. Sillogizm figuralari va moduslari. Murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqarish. Induktiv xulosa chiqarish. Induktsiyaning tajriba natijalarini umumlashtirish bilan aloqasi. Induktiv xulosa chiqarishning turlari. Analogiya, uning turlari.

14-mavzu. Axloq falsafasi (Etika)

Axloq falsafasi (Etika) Etikaning mohiyati va ahamiyati. Zamonaviy etikaning asosiy sohalari: metaetika, normal etika, amaliy etika. Etikadagi qadriyatlar va kategoriyalar. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Kasbiy (professional) etika. Kasbiy etikaning muammolari. Kasbiy axloq va mehnat etikasi. Kiberetika. Tibbiy etika. Yuridik etika. Ijtimoiy hayot etikasi. Etikada ijtimoiy adolat tamoyili. Siyosat va axloq o'rtasidagi munosabat. Ekologik etika. Ishbilarmonlik etikasi. Davlat tashkilotlari va davlat xizmati tizimidagi kasbiy etika. Bioetikaning axloqiy jihatlari. Etikaga kirish, ushbu mavzu axloqqa oid o'zaro bog'liq, umumjahon axloqiy haqiqatlar, falsafiy tadqiqot va hayotning ma'nolari, axloqiy mulohazalar, tanqidiy fikrlash.

15-mavzu. Nafosat falsafasi (Estetika)

Nafosat falsafasi (Estetika) Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyusiyasi. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta'siri. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Estetika va san'at. San'atning funksiyalari. Amaliy san'atning estetik jihatlari. Estetika va dizayn. Reklamanning estetik didni tarbiyalashdagi roli. Xalq amaliy san'atining estetik jihatlari. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni estetik idrok etishning darajalari. San'atdagi inqiroz (degumanizatsiya).

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo'lg'usi pedagoglarda o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.

- 2-mavzu. Falsafani taraqqiyot bosqichlari.
- 3-mavzu. Falsafa tarixi.
- 4-mavzu. Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi.
- 5-mavzu. Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.
- 6-mavzu. Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi..
- 7-mavzu. Korrupsiya va ijtimoiy hayot.
- 8-mavzu. Mantiqiy tafakkur evolyutsiyasi: formal, dialektik va noklassik mantiq..
- 9-mavzu. Tushunchaning turlari va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar.
- 10-mavzu. Etikadagi qadriyatlar va kategoriyalar.
- 11-mavzu. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari
- 12-mavzu. Mantiq.
- 13-mavzu. Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm va xulosa
- 14-mavzu. Axloq falsafasi (Etika)
- 15-mavzu. Nafosat falsafasi (Estetika)

IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Falsafa nimani o'rganadi va uning asosiy muammolari nimalardan iborat?
2. Jamiyatda falsafa qanday rol o'ynaydi va uning vazifalari nima?
3. Sharq falsafasining asosiy taraqqiyot bosqichlari nimalar?
4. Zamonaviy Sharq falsafasining asosiy yo'nalishlari qanday?
5. Platon va Aristotel falsafasining G'arb falsafiy tafakkuri rivojiga qo'shgan eng muhim hissasi nimada?
6. Uyg'onish davrining muhim faylasuflari va g'oyalari haqida ma'lumot bering.
7. Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosini tushuntiring.
- 8.Voqelik (reallik) tushunchasi. Materiya kategoriyasi haqida ma'lumot bering.
- 9.Voqelik va o'zgarish jaraenida ayniyat va ziddiyat dialektikasi.
- 10.Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqeligi tarzida miqdor va sifat tushunchalari.
- 11.Bilim va bilish - falsafiy tahlil mavzui sifatida.
12. Ilmiy bilishning mohiyati va usullari haqida ma'lumot bering.
- 13.Falsafada ong muammosi.Ongning mohiyati.
- 14.Ong genezisi.In'ikos shakllarining rivojlanib borishi.

	15.Jamiyat falsafasining asosiy ontologik masalalaridan biri bo'lgan jamiyatning mavjudligi haqidagi realist va nominalist qarashlarni tushuntiring. 16.Zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan globalizatsiyaning jamiyatga ta'siri haqida ma'lumot bering. 17. Falsafada inson muammosi qanday yondashuvlarga ko'ra o'rganiladi? 18. Inson hayotining ma'nosi. Inson oliy qadriyat sifatida. 19."Qadriyat" tushunchasi haqida umumiy ma'lumot. 20.Qadriyatning turlari. 21. Ozbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonuni mazmun-mohiyati 22.Korrupsiyaga qarshi kurash borasida Ozbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yonalishlari. 23.Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o'rni va mantiq fanining yo'nalishlari. 24.Tushunchalarning shakllanish va qo'llanishi. 25.Tushuncha nima?Tushunchani qanday turlari mavjud? 26.Xulosa chiqarish nima?Xulosa chiqarishning tarkibi qanday? 27.Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me'yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi. 28. Axloqning paydo bo'lishiga oid diniy, ilmiy qarashlar tasnifi. 29."Estetika" fanining obekti va falsafiy mohiyati va"Estetika" haqidagi qarashlar tarixi. 30.Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi.
3.	V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari Talaba bilishi kerak: •Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo'lg'usi pedagoglarda o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati, falsafani taraqqiyot bosqichlari, falsafa tarixi, ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi, ma'naviyatshunoslik fanining predmeti va ahamiyati, ma'naviyat tushunchasi: mohiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo'lish shakllari, ma'naviyatning vujudga kelishi (genezisi) va dastlabki rivojlanish davri kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) •Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari, korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari, korrupsiya va ijtimoiy hayot, korrupsiyani bartaraf etishning

	asosiy yo‘nalishlari, dinshunoslik faniga kirish, dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari, islom dini va ta’limoti, ma’naviyat, madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari nisbati, ma’naviyat va jamiyat xayoti, ma’naviyat va iqtisodiyot, ommaviy madaniyatning xususiyatlari, axloqiy tarbiya va estetik tarbiya haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma) • yoshlarning dunyoqarashi ilmiy salohiyatini shakllantirishda amaliy-pedagogik faoliyat olib bora olishi, yoshlarni milliy qadryatlarga xurmat hissi asosida tarbiyalay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. (malaka)
4.	VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirishi, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olishi, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi va joriy, oraliq, yakuniy nazorat shakllarida va mustaqil ta’lim uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi kerak.
	Asosiy adabiyotlar
	To‘xtayev H. Ijtimoiy falsafa. Darslik. - Toshkent: Ma`rifat, 2023. - 364 b.
	Shermuhamedova N.A. Falsafaga kirish. Darslik. - Toshkent: Fidokor yosh avlod nashriyoti, 2023. - 572 b.
	Shermuhamedova N.A. Falsafa. Darslik. - Toshkent: Idris Abdurauf Nashr, 2021.-620 b.
	Tulenov J., Tulenova K., Tulenova G. Falsafa. Toshkent, Innovatsiya-Ziyo, 2022.
	Yuldasheva M. Falsafa, Namangan, Usmon Nosir media. 2025.
	https://www.bu.edu/academics/cas/courses/cas-ph-253/
	https://www.bu.edu/academics/cas/courses/cas-ph-408/
	https://www.manchester.ac.uk/study/undergraduate/courses/2025/18870/llb-

	law-with-criminology/course-details/CRIM31051#course-unit-details
	Qo'shimcha adabiyotlar
	Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. – Toshkent: O'zbekiston, 2017
	С.А.Юлдашев Антик фалсафа Ташкент 1999
	Абдулла Шер “Ахлоқшунослик” Маърузалар матни Тошкент 2000
	Жондор Туленов Диалектика Назарияси Тошкент, Ўзбекистон 2001
	М.Қаххоров, М.Аминова “Мантиқ” Тафаккур илмий ижодий маркази Қўқон 2001
	С.Юлдашев, М.Усмонов, Р.Каримов Янги ва энг янги давр ғарбий европа фалсафаси Шарқ нашриёти Тошкент 2002
	Г.Сикербекк, Н.Гилье Фалсафа тарихи Шарқ нашриёти Тошкент 2002
	М.Шарипов, Д.Файзихўжаева “Мантиқ” Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент-2004
	Х.Сапахонов, М.Юлдашева Этика-эстетика асослари Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент 2004
	И.Рахимов, А.Ўтамурадов Фанларнинг фалсафий масалалари Тошкент 2005
	М.Ахмедова Фалсафа Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Тошкент 2006
	И.Саифназаров, Б.Қосимов, А.Мухторов Фаннинг фалсафий масалалари Тошкент 2007
	Анвар Чориев Инсон фалсафаси Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Тошкент 2007
	Н.Шермухаммедова Фалсафа ва фан методологияси. Тошкент 2008
	Абдулла Шер, Баходир Хусанов, Эркин Умаров. Эстетика услубий-қўлланма. Тошкент-2008
	Абдулла Шер, Баходир Хусанов, Эстетика услубий-қўлланма иккинчи нашри. Тошкент ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти 2010

	Хаитов Шавкат Ишонқулович Шахс мураса фалсафаси Тошкент 2010
	М.Жакбаров “Комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий негизлари”. “Тафаккур” нашриёти Тошкент-2011
	Б.Ж.Шамсиддинов, Ғ.У.Отажонов “Мантиқан тўғри фикрлашнинг умумий қонунлари” Ўқув қўлланма. Тошкент 2015
	Н.Шермухаммедова. Инсон фалсафаси. Дарслик Тошкент иновация Зиё 2020
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas’ul: B.Shamsiddinov – Qo‘qon DU, Falsafa va dinshunoslik kafedrası v/b dotsenti falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
9.	Taqrizchilar: I. Siddiqov – FarDU professori, falsafa fanlari doktori (DSc) D.Nopmatova – FarDU dotsenti, falsafa fanlari nomzodi